

IJTIMOY PERSEPSIYANI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK FANLAR TIZIMINING METODIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. azkur maqolada pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy persepsiya sifatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi yoritilgan. Ijtimoiy persepsiya (lotincha perceptio – idrok etish) – bu shaxs ijtimoiy muloqotga kirishuvi va faoliyati davomida tarkib topib, insonlarning turli ijtimoiy obyektlar, ya'ni odamlar, jamoalar, guruhlar, ijtimoiy jarayonlar va vaziyatlarni idrok etishi, tushunishi va anglashi jarayonlarini ifodalaydi. Tadqiqotda interfaol metodlar, psixologik treninglar va individual yondashuvlardan foydalanish talabalarning ijtimoiy persepsiya sifatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlik ko'rsatgan. Shuningdek, maqolada ijtimoiy persepsiyani rivojlantirish bo'yicha maxsus treninglar va baholash usullarining ta'lim jarayoniga integratsiya qilinishi bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Ushbu yondashuv talabalarning shaxsiy salohiyatini oshirish va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim vosita sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy, pedagogik ta'lim, talaba shaxsiyati, psixologik ko'nikmalar, interfaol metodlar, o'zini-o'zi baholash, o'qitish usullari.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ СИСТЕМЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНОГО ВОСПРИЯТИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос совершенствования методики развития качеств социальной перцепции студентов в процессе педагогического образования. Социальная перцепция (лат. perceptio — восприятие) — процесс восприятия, понимания и осмысления человеком различных социальных объектов: людей, общностей, групп, социальных процессов и ситуаций, формирующийся в процессе социального общения и деятельности. Исследование показало высокую эффективность использования интерактивных методов, психологического тренинга и индивидуальных подходов в развитии качеств социальной перцепции студентов. В статье также даны рекомендации по интеграции в образовательный процесс специальных методов обучения и оценки для развития социальной перцепции. Данный подход рассматривается как важный инструмент повышения личностного потенциала студентов и их подготовки к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: социальное, педагогическое образование, личность студента, психологические навыки, интерактивные методы, самооценка, методы обучения.

METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF THE SYSTEM OF PEDAGOGICAL DISCIPLINES IN THE DEVELOPMENT OF SOCIAL PERCEPTION

Annotation. This article discusses the issue of improving the methodology for developing students' social perception qualities in the process of pedagogical education. Social perception (Latin perceptio - perception) is a process in which a person perceives, understands and comprehends various social objects, that is, people, communities, groups, social processes and situations, which is formed during their participation in social communication and activity. The study showed that the use of interactive methods, psychological training and individual approaches showed high efficiency in developing students' social perception qualities. The article also provides recommendations for integrating special training and assessment methods for developing social perception into the educational process. This approach is considered an

important tool for increasing the personal potential of students and preparing them for professional activity.

Keywords: social, pedagogical education, student personality, psychological skills, interactive methods, self-assessment, teaching methods.

Kirish. Ijtimoiy persepsiya (lotincha perceptio – idrok etish) – bu shaxs ijtimoiy muloqotga kirishuvi va faoliyati davomida tarkib topib, insonlarning turli ijtimoiy obyektlar, ya'ni odamlar, jamoalar, guruhlar, ijtimoiy jarayonlar va vaziyatlarni idrok etishi, tushunishi va anglashi jarayonlarini ifodalaydi. Ushbu jarayon shaxslararo o'zaro ta'sirga asoslanadi va ko'p jihatdan ijtimoiy munosabatlarning mazmunini, vaziyatini, ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi hamkorning kayfiyatini, his-tuyg'ularini, ichiki kechinmalarini idrok etishni va obyektiv baholashni anglatadi. Ijtimoiy persepsiya muammosi psixologiyada juda keng o'rganilgan bo'lib, ushbu muammoga oir dastbki tadqiqotlar XX asrning boshlarida, olimlar odamlarning bir-birlari haqida qanday fikrda bo'lishlari bilan qiziqqa boshlaganlarida boshlangan.

"Ijtimoiy persepsiya" atamasi 1947-yilda amerikalik psixolog Jerom Bruner tomonidan birinchi marta ishlatilgan va fanga kiritilgan. Ushbu termin nafaqat sezgilar, balki aql tomonidan ham vujudga kelishini ifodalaydi va atrofdagi insonlar haqidagi fikrlar, munosabatlarning shakllanishida kognitiv jarayonlarning rolini ta'kidlaydi.

1950–60-yillarda ijtimoiy persepsiya bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar ko'paydi. Jumladan, Solomon Ash insonning insonlarga doir taassurotlari shakllanishi jarayonini tadqiq etgan bo'lsa, Fritz Xayder odamlar boshqalarning xatti-harakatlarining sabablarini qanday izohlashini tushuntiruvchi atribut nazariyasini ishlab chiqdi. Bundan tashqari G. Kelli, T. Nyukomb, L. Festinger kabi olimlar shaxslararo idrok, ijtimoiy persepsiyaning turli jihatlarini o'rganib, ushbu muammoni tahlil etish va shaxslararo munosabatlarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini ochib berishga katta hissa qo'shdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son, 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ–3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 16-yanvardagi PQ–4119-son "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–4884-son Qarori, 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4963-son qarori hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, ijtimoiy persepsiya sifatlarini rivojlantirish talabalarning nafaqat kasbiy, balki shaxsiy hayotlarida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiya qilish va ijodiy salohiyatlarini ochishda yordam beradi. Shu sababli, pedagogik ta'limda ijtimoiy persepsiyaning shakllantirishning samarali usullarini aniqlash va ta'lim jarayoniga joriy etish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Bo'lajak o'qituvchining professinal sifatleri va kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonida amalga oshadi, shu nuqtayi nazardan pedagogik tizim fanlarining ushbu boradagi imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz.

Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi pedagogik ta'lim tizimida o'qituvchilarni tayyorlash – kadrlarni ommaviy takroriy tarzda tayyorlashni amalga oshirish obyekti sifatida qaraladi. Ushbu jarayonda psixologik va kasbiy rivojlanish subyekti sifatida e'tibor qilinmaydi, ular uchun kasbning shaxsiy ahamiyatli ma'nosi,

174 kasbiy mustaqil tahlil hamda izlanishga, pedagogik refleksiya tashuvchisi sifatida ularda ana shunday pozitsiyani shakllantirishga undaydigan sharoitlar yaratilmaydi.

Qator pedagogik tadqiqotlarda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik tayyorgarligiga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi alohida ta'kidlanadi. Jumladan, A.I. Piskunov oliy pedagogik ta'lim nazariyasi va metodikasida pedagog shaxsini shakllantirishga, ularda kasbiy-pedagogik tafakkurni shakllantirish, pedagogik bilim, ko'nikma va malaka bilan qurollantirish muammolari yetarlicha tadqiq etilmaganligini ta'kidlaydi. Pedagogika ixtisosliklarida ta'lim olayotgan talabalar uchun shakllantirilishi lozim bo'lgan quyidagi xususiyatlar sanab o'tilgan: real hayotdagi hodisa, jarayonlarni tizimli ko'ra olish va tushunish; an'anaviy ta'lim va innovatsiyalarni dialektik nuqtayi nazardan o'zaro bog'lay olish qobiliyati; o'z faoliyatini ongli tahlil qila olish; fikrlash tarzini insonparvarlashtirish.

Talabaning kasbiy tafakkurini shakllantirish bilan bog'liq holda, talaba-shaxsining hissiy-qadriyat sohasi ahamiyatini qayd etish ham zarur. Pedagogik tafakkurning axborot-hissiy komponentini aniqlashtirib, pedagogik e'tiqod – pedagogik tafakkurning oliy va murakkab elementi ekanligi ta'kidlanadi, ya'ni ular murakkab jarayonning natijasi bo'lib, uning davomida pedagogik bilimlar shaxsning irodasi va ixtiyoriga o'tadi hamda pedagogik faoliyat uchun teran ichki motiv va rag'batlantirishga ega bo'ladi.

Pedagogik tafakkurni samarali shakllantirish uchun uning psixologik mexanizmining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak, chunki bu jarayon shaxsning alohida munosabati va qadriyat yo'nalishlariga asoslanadi, uning motivatsion va hissiy sohalariga ta'sir qiladi.

Pedagogik ixtisosliklarda ta'lim berish amaliyotida talabalarga hissiy ta'sirning ikki jihatini hisobga olish muhimdir: his-tuyg'ularni shakllantirish, etika nuqtayi nazaridan pedagogik faoliyatga bo'lgan qiziqish va pedagogika yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalariga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni hisobga olish.

Pedagogik tafakkurni shakllantirish vazifasi ham o'quvchilarning bilish faolligini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir, chunki mustaqil ijodiy fikrlash faoliyatigina mustahkam e'tiqodning rivojlanishiga olib keladi.

Shunday qilib, ikkinchi bosqichda talabaning kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan his-tuyg'ularini shakllantirish uchun motivatsiya yaratish tizimiga ta'sir amalga oshiriladi. Shuningdek, pedagogik bilimlarning ko'nikmaga o'tish hamda pedagogik tafakkurning axborot-emotsional komponenti shakllanish jarayonlari amalga oshadi.

Natijalar. Pedagogik tafakkurni tahlil qilish – pedagogik fanlarni o'rganish pedagogik tayyorgarlikning o'zagi hisoblanadi. Talabalar va pedagoglarning "pedagogik tayyorgarligi" ilmiy kategoriya va voqelik hodisasi sifatida ta'lim subyektlari tomonidan kasbiy bilimlar tizimini o'zlashtirish, metodologik madaniyatni rivojlantirish, asosiy umumiy pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni va natijasidir. Ya'ni pedagogik tayyorgarlik tahliliy-tashhislash, loyihalashtirish, prognostik, konstruktiv tashkiliy, kommunikativ, refleksiv, eng muhim kasbiy va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish – bolalarni sevisish, empatiya, bag'rikenglik, refleksiya, hissiy barqarorlik kabilarni o'z ichiga oladi. Pedagogik tayyorgarlik jarayonini modellashtirish muammosi ustida izlanish olib borgan tadqiqotchi Sh. Nurullayeva uzluksiz pedagogik tayyorgarlik jarayoni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishini ta'kidlaydi:

1. Pedagogik tayyorgarlik.
2. Psixologik tayyorgarlik.
3. Metodik tayyorgarlik.
4. Virtual ta'lim muhitida o'z ustida ishlashga o'rgatish.

Mazkur yo'nalishda amalga oshiriladigan pedagogik tayyorgarlik jarayoni bo'lajak o'qituvchining faoliyat yo'nalishlaridan kelib chiqib ham pedagogik, ham psixologik, ham metodik tayyorgarlik yo'nalishlari sifatida belgilangan. Shu bilan birga pedagogik tayyorgarlikning uzluksizligini ta'minlash maqsadida virtual ta'lim muhitida o'z ustida ishlashga o'rgatish yo'nalishida ham ish olib borish lozimligi ta'kidlanadi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik tayyorgarlikning asosida pedagogik tizim fanlarni o'zlashtirish yotadi. "Pedagogik tayyorgarlik" kategoriyasi pedagogik ta'lim

subyektlari tomonidan kasbiy bilimlarni o'zlashtirilishi, metodologik madaniyat asoslarini egallanishi, asosiy umumpedagogik ko'nikmalarni tarkib toptirilishi va shaxsiy-kasbiy sifatlarni shakllantirilishini nazarda tutadi. Umumpedagogik ko'nikmalar tarkibiga tahliliy-dagnostik, loyihalashtirish, prognozlashtirish, tashkilotchilik, kommunikativlik va refleksivlik kabi ko'nikmalar kiradi.

Pedagogning shaxsiy-kasbiy sifatlari esa empatiya, bag'rikenglik, insonparvarlik, bolalar va o'z kasbiga bo'lgan muhabbat, emotsional barqarorlik kabi xususiyatlarni qamrab oladi.

Pedagogik ta'lim jarayonining samarasi predmetlararo va predmet ichida amalga oshiriladigan optimallashtirishga bog'liq. Pedagogik ta'lim mazmunini o'rganish shakl va metodlarini o'zlashtirishda shaxsiy-faoliyatli, antropologik va kulturologik yondashuvlar yetakchilik qiladi. Shaxsiy-faoliyatli yondashuvda pedagogik ta'limning asosiy maqsadi sifatida o'qituvchi shaxsini shakllantirish jarayoni nazarda tutiladi, antropologik yondashuvda pedagogik faoliyatning asosi sifatida insonshunoslik g'oyalari yotadi, kulturologik yondashuvda esa pedagogik g'oyalar va qarashlar dinamikasini dunyo madaniyati bilan uyg'unlashtirishga harakat qilinadi.

Tadqiqotimiz g'oyasi nuqtayi nazaridan shaxsiy-faoliyatli va antropologik yondashuvlar muhimdir, chunki ular talabalarda ijtimoiy persepsiyani rivojlantirish uchun qadriyat yo'nalishlarini aniqlab olishga imkon beradi va boshqa tomondan esa mazkur jarayon texnologiyasini ta'minlab beradi.

O'quv fanlari mazmunini tanlashda bilimga markazlashtirilib yo'naltirilgan yondashuvdan qochgan holda o'zlashtirilgan bilimlarning shaxsiy ma'nosini hisobga olish, talabaning tushunchalar, qonunlar, g'oyalar, texnologiyalar va shu kabilarga uning kelajakdagi kasbiy faoliyatida shaxsan muhim ahamiyatga ega munosabatini aks ettiradi.

Pedagogik bilimlarga hissiy-qadriyatli munosabatlarni shakllantirish bir tomondan, ichki qarama qarshiliklarni yengib o'tib, ijobiy natijalarga erishish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, bo'lajak o'qituvchining pedagogik faoliyatga nisbatan ichki imkoniyatlariga ishonchni shakllantirishga yordam beradi. Ya'ni talabaning pedagogik faoliyatga nisbatan qiziqishi oshadi, o'z-o'ziga bo'lgan ishonch tarkib topadi.

Pedagogik bilimlarni o'zlashtirishga emotsional-qadriyatli yondashuv talabalarga kognitiv jarayonlar samarali kechishiga yordam berish bilan bir qatorda, pedagog shaxsi shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oliy ta'lim muassasalari pedagogika ixtisosliklarida o'rganilayotgan pedagogika fanlarining tizimini oldimizga qo'ygan vazifalarimiz nuqtayi nazaridan qarab chiqamiz. Pedagogik ta'lim jarayonida ijtimoiy persepsiyani shakllantirishga e'tibor qaratish esa persepsiya tuzilishiga mos ravishda maxsus yo'riqnoma – topshiriqlarni joriy etishni nazarda tutadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy persepsiyani rivojlantirishga qaratilgan kognitiv vazifalar quyidagilardan iborat:

kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchida kasbiy muhim fazilatlarni shakllantirish;

o'qituvchining kasbiy ahamiyatli fazilatlari tarkibida ijtimoiy persepsiyaning o'rni haqida tasavvurlarni shakllantirish.

o'zida perseptiv sifatlarni shakllanganlik darajasi haqida tasavvurga ega bo'lish – o'z-o'zini tashhislash.

o'quv matnlarini muhokama qilishda perseptiv xatti-harakatlarning dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish, kursning modullari bo'yicha turli xil vazifalarni bajarish.

Pedagogik ta'limning o'zagi "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kursi bo'lib, uni talabalar ikkinchi kursda o'rganadilar.

"Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kursi nazariy fan bo'lib, mazkur o'quv predmetining yo'nalishi pedagogikaning, eng avvalo, falsafa va psixologiya bilan fanlararo aloqalarida ahamiyatlilik kasb etadi.

Tahlil va muhokama. Olingan natijalar ko'rsatdiki, ijtimoiy persepsiya sifatlarini rivojlantirish talabalarning shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko'nikmalar

- 176 nafaqat ularning pedagogik faoliyatida, balki kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarida ham samarali ishlatiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy persepsiya sifatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodikalarning pedagogik jarayonga integratsiya qilinishi samaradorligini yanada oshiradi. Muhokamalar davomida ushbu jarayonda yuzaga kelgan muammolar ham tahlil qilindi: Ijtimoiy persepsiyani rivojlantirish uchun yetarli vaqt ajratish zarurati.

• Psixologik tayyorgarlikning o'qituvchi va talaba uchun ahamiyati.

Xulosa va tavsiyalar. Mazkur tadqiqot natijalari Ijtimoiy persepsiyani sifatlarini rivojlantirish metodikasini pedagogik jarayonda takomillashtirishning zarurligini ko'rsatadi. Talabalar shaxsiy va kasbiy jihatdan yetuk bo'lishlari uchun ushbu sifatlarning rivojlanishi muhim ahamiyatga ega.

Tavsiyalar:

1. Pedagogik ta'lim jarayoniga Ijtimoiy persepsiyani rivojlantiruvchi maxsus treninglarni kiritish.
2. O'qituvchilar uchun Ijtimoiy persepsiyani shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish.
3. Talabalar uchun guruhli va individual ishlarni uyg'unlashtiruvchi metodlarni keng qo'llash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сластенин, В.А. О современных подходах к подготовке учителя // *Технология психолого-педагогической подготовки учителя к воспитательной работе*. – Барнул, 1996. – 3 с
2. Пискунов А.И. Педагогическое образование: цель, задачи и содержание // *Педагогика*. – 1995. – №4. – С. 59.
3. Шайденко Н.А. Формирование творческой личности учителя в учебном процессе педагогического вуза. Монография. – Москва: Прометей, 1992. – 26 с.
4. Шайденко Н.А. Формирование творческой личности учителя в учебном процессе педагогического вуза. Монография. – Москва: Прометей, 1992. – 26 с.
5. Шайденко Н.А. Формирование творческой личности учителя в учебном процессе педагогического вуза. Монография. – Москва: Прометей, 1992. – С. 28-29.
6. Орлов А.А. Педагогика: Концепция и учебная программа курса для студентов пед. Вуза / А.А. Орлов. – Тула: Изд-во Тул.гос.пед.ун-та им. Л.Н. Толстого, 2001. – 3 с.
7. Нуруллаева Ш. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчилари педагогик тайёргарлигини моделлаштириш назарияси ва методикаси. Пед.ф.д. ... дисс.автореферати. – Қарши, 2021. – 63 б.